ning salmog‘i beqiyos. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo‘lish orqali o‘zlikni anglash va rivojlanishning o‘ziga xos yo‘li shakllanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatparvarlik–bu muayyan tarixiy davrning feodallikka qarshi yo‘nalganligi, intilishi bilan xarakterlanadigan mafkuraviy oqimi ijtimoiy adolatsizlikni, cherkov jaholatini, falsafiy mistitsizmni tag-tomiri bilan yo‘q qilish tarafdorlari bo‘lgan. Ma’rifatchilik kengroq tushuncha bo‘lib, u, o‘z navbatida, uning tarkibiy qismi bo‘lgan ma’rifatning o‘zini ham o‘z ichiga oladi.[1]

Xaitov Lazizbek Azamatovich (BuxDU “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD); falsafa.phd.1991@mail.ru)

HAKIM TERMIZIY MA’NAVIY MEROSINING TASAVVUFIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Hakim Termiziy ma’naviy merosidagi “Buduvvu sha’n Abu Abdulloh Termiziy” (“Hakim Termiziy yo‘lining boshlanishi”), “Adabun nafs” (Nafs odobi), “Riyozatun nafs” (Nafs riyozati), “Xatm ul-avliyo” (Valiylar muhri), “Ma’rifat ul-asror”, “Manozil ul-ibod min al-iboda” (Bandalarning bandachilikdagi manzillari), “Bayon ul-kasb” (Kasb-tirikchilik bayoni) kabi asarlaridagi tasavvufiy-falsafiy g‘oyalari tahlili amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar*: falsafa, tasavvuf, nafs tarbiyasi, gnoseologiya, ilm, ma’rifat, bilim, hikmat, donishmandlik, inson, ontologiya, akmeologiya, valiylik (valoyat), rizq va kasb.*

Хаитов Лазизбек Азаматович (Бухарский государственный университет, доцент кафедры “История ислама и источниковедение, философия”, доктор философии по философским наукам (PhD); falsafa.phd.1991@mail.ru)

СУФИЙСКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ХАКИМА ТЕРМИЗИ

Аннотация. *В данной статье проведен анализ суфийско-философских идей великих мыслителей, таких как Хаким Термизи, в его духовном наследии, включая работы: “Будувву ша’н Абу Абдуллох Термизи” (“Начало пути Хакима Термизи”), “Адабун нафс” (“Одеяние души”), “Рийозатун нафс” (“Усилия души”), “Хатм уль-авлийо” (Печать святых), “Ма’рифат уль-асрар” (“Познание тайн”), “Манозиль уль-ибод мин аль-ибода”(“Адреса поклоняющихся рабов”), “Баян ул-касб” (“Пояснение о средствах существования”).*

Ключевые слова: *философия, суфизм, воспитание души, гносеология, знание, познание, мудрость, разумность, человек, онтология, акмеология, святительство (валият), удел и средства существования.*

Xaitov Lazizbek Azamatovich (Bukhara state university, associate professor of the chair of “History of Islam and source studies, philosophy”, Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD); falsafa.phd.1991@mail.ru)

SUFI-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SPIRITUAL LEGACY OF HAKIM TIRMIZI

Annotation. *This article provides an analysis of the Sufi-philosophical ideas of great thinkers, such as Hakim Tirmizi, within his spiritual legacy, including the following works:* “Buduwu sha'n Abu Abdulloh Tirmizi” *(“The Beginning of the Path of Hakim Tirmizi”),* “Adabun nafs” *(“The Clothing of the Soul"),* “Riyozat un-nafs” *(“The Efforts of the Soul”),* “Khatm ul-awliya” *(“The Seal of the Saints”),* “Ma'rifatul asrar” *(“Knowledge of the Secrets”),* “Manazil ul-ibad min al-ibad” *(“The Stages of the Servants' Worship”),* “Bayan ul-kasb” *(“Explanation of the Means of Subsistence”).*

Keywords: *philosophy, Sufism, soul cultivation, epistemology, knowledge, gnosis, wisdom, reason, human, ontology, acmeology, sainthood (wilayah), sustenance and livelihood.*

Kirish. Jahon ilm-fanida, xususan, yetakchi ilmiy markazlar, tadqiqot institutlarida Sharq mutafakkirlari ilmiy, falsafiy merosining qiyosiy tahlili asosida ma’rifatli zamonaviy shaxsni tarbiyalash, inson borlig‘i, axloqiy poklik, hayotning ma’nosini anglash, ma’naviy kamolotga erishish, ilm va hunarga ega bo‘lish, insonni ezgu faoliyatga yo‘naltirishga oid qator fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan Hakim Termiziyning inson kamolotiga oid tasavvufiy-falsafiy qarashlarida ilgari surilgan ilm, ma’rifat, yaxshi xulq, hikmatni anglashga oid g‘oyalarining insonparvar maqsadlarga asoslanganligini falsafiy-tarixiy tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Hakim Termiziy (820–932) “Hakim ul-avliyo” (Valiylar hakimi), “Qudvat ulavliyo” (Avliyolar mayog‘i), “Mashoyixi kibor” (Ulug‘ shayx), “Olimi usuli ad-din” (Din usuli olimi), “Ash-Shayx” (Alloh ilmi bilimdoni), “Al-Alloma Sayyid” (Payg‘ambar avlodlari), “Muhaddis” (Hadisshunos), “Az-Zohid” (Din-

[1] Д.Ш.Цырендоржиева, А.Ц.Батуева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты “Вестник Бурятского государственного университета”, 14/2013, с. 35.

ning targ‘ibotchisi), “Al-Hofiz” (Qur’onxon), “Al-Imom” (Hazrati Ali avlodlari), “Al-Orif” (Allohni tanigan), “Al-valiy” (avliyo, Allohning do‘sti), “Al-Muazzin” (Azon aytuvchi), “Xoja” (Choriyorlar avlodi), “Mufassir” (Tafsirchi), “Al-Hakim” (Ilmning ichki sirlarini biluvchi), “Al-Olim”, “Tabib”, “Mintaqa tasavvufining otasi” kabi unvonlar bilan ulug‘langan mutafakkirdir [1;6-b.].

Mutassavifning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy bo‘lib, U Hakimiya ta’limotining asoschisidir. Hakim at-Termiziy o‘z asarlarida islom tarixi, ta’limoti, tasavvuf nazariyasi, hadis ilmi, axloq-odob, turli tariqatlar haqida beqiyos mulohazalarini bayon etgan.

Tadqiqot obyekti va qo‘llaniladigan metodlar. Hakim Termiziyning ilmiy-ma’naviy merosidagi “Buduvvu sha’n Abu Abdulloh Termiziy” (“Hakim Termiziy yo‘lining boshlanishi”), “Adabun nafs” (Nafs odobi), “Riyozatun nafs” (Nafs riyozati), “Xatm ul-avliyo” (Valiylar muhri), “Ma’rifatul asror”, “Manozil ul-ibod min al-iboda” (Bandalarning bandachilikdagi manzillari), “Bayon ul-kasb” (Kasb-tirikchilik bayoni) kabi asarlaridagi tasavvufiy-falsafiy g‘oyalari tahlili amalga oshirilgan [7;160-b.]. Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, germenevtik tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Hakim Termiziy islom va tasavvuf falsafasining qator sohalarida ijod qilgan bo‘lishiga qaramay, fanning, ayniqsa falsafa ilmi bilan ham shug‘ullangan va o‘zidan boy ma’naviy meros qoldirgan. Uning asarlarida qator falsafiy yo‘nalishlar axloqshunoslik, antropologiya, gnoselogiya, aksiologiya, ontologiya, estetikaga oid ma’lumotlar tahlil qilingan. Bizning tadqiqotimizda Hakim Termiziyning “Buduvvu sha’n”, “Adab un-nafs” (Nafs odobi), “Riyozatun nafs”, “Navodir ul-usul”, “Kasb-tirikchilik bayoni” (Bayon ul-kasb), “Masoil al-Maknuna”, “G‘ovr ul-umur”, “Ma’rifat ul-asror”, “Masoil ahli saraxs”, “Al-imsol minal kitob sunna”, “Bayonul farq”, “Manozil ul-ibod min al-iboda”(Bandalarning bandachilikdagi manzillari), “Xatm ul-avliyo” kabi asarlari tahlil etilib, mutafakkirning tasavvufiy falsafiy g‘oyalarini yoritishda ushbu asarlar metodologik ahamiyat kasb etishini tadqiqotlar asosida aniqladik:

“Buduvvu sha’n Abu Abdulloh Termiziy” (“Hakim Termiziy yo‘lining boshlanishi”) asari Hakim Termiziyning o‘z hayot yo‘li haqida o‘zi yozib qoldirgan avtobiografik asari bo‘lib, unda, asosan, o‘zining ruhiy kechinmalari va hayotida sodir bo‘lgan ba’zi faktlarni zikr etadi. Shuningdek, mazkur asar Hakim Termiziyning tarjimai holiga o‘xshasa ham, unda majoz kuchli, ramziy holatlarga ko‘proq urg‘u beriladi. “Buduvvu sha’n”da shaxs holatlari va nafsga qarshi kurash bilan bog‘liq hodisalar yetakchi o‘rinda turadi. Allomaning hayoti va ilmiy ijodiy faoliyati haqida tarixiy asarlar va qomuslarda afsuslanarli darajada juda ham oz ma’lumotlar keltirilgan. Shu sababli ham tadqiqotimizda mutafakkirning hayot yo‘li haqida o‘zi yozib qoldirgan ma’lumotlariga tayanildi [2;25–42-b.].

Hakim Termiziy o‘zining “Adab un-nafs” (Nafs odobi) asari nafs tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarini o‘z ichiga olgan, nafs odobi haqidagi asar, ya’ni odob bu hol, ma’lum ma’noda nazariyadir. Asarda, avvalo, hayot, inson omili, nafs, qalb, aql va havo bahsi tevaragida, so‘ng inson botinidagi nafs masalasi, unga qarshi kurash, uning odobi, nafsning zohiriy va botiniy alomatlari xususida fikr yuritadi. Asar tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning tadqiqotlari markazida inson turadi. Mutasavvifning “Adabun nafs” (Nafs odobi) asari antropologik, gnoseologik va ontologik masalalarga bag‘ishlangan, Hakim Termiziy nafs masalasini tahlil qilishda nafsni bilish (gnoseologiya), nafs inson borlig‘ining muhim tomoni (ontologiya), nafsni tarbiyalashning axloqiy kamolotdagi o‘rni (akmeologiya) masalalariga e’tibor qaratgan [2;56-b.].

Asarda inson va uning shaxsiyati tahlil qilinib, avvalo, insonning tabiiy (biologik) xususiyatlari tekshirilib, so‘ngra islomiy omillarni (shar’iy matn va ahkomlar) keltirishga o‘tiladi. Bunda ushbu omillarning insoniy fitratga nechog‘lik muvofiqligi va unga bo‘lgan turli ta’sirlari o‘rganilgan.

“Riyozat un-nafs” (Nafs riyozati) asari Hakim Termiziyning “Adabun nafs” risolasining mantiqiy davomi yoki uning uzviy qismi deyish mumkin. Mazkur asar ruh tarbiyasiga oid asarlar orasida muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda Hakim Termiziy barcha narsani insonning ichki dunyosiga qalbi, nafsi, aqli va ruhiyati, ya’ni asllarga qaytargan holda tushuntiradi. Bu asarda nafs riyozati mavzusi asosiy masala bo‘lib, inson nafsini jilovlash uchun lozim bo‘lgan usul va vositalar keltirilgan [2;246-b.].

“Xatm ul-avliyo” (Valiylar muhri) asari mutasavvifning tasavvuf nazariyasiga oid valiylik (valoyat) masalasiga bag‘ishlangan. Mutasavvif tasavvuf nazariyotchilari orasida birinchi bo‘lib valiylik haqidagi qarashlarini bir tizimga solish orqali tasavvufdagi valiylik haqidagi g‘oyalarni ishlab chiqqan va valiylik nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan. “Xatm ul-avliyo” asari muqaddima va 29 bobdan iborat bo‘lib, o‘rtaga tashlangan masalalar savol-javob shaklida bayon etilgan [3;18-b.]. Ya’ni, shogirdning savollari va ustozning unga bergan javoblari ko‘rinishida yozilgan. Asarda tasavvuf tarixida birinchi marta avliyolik darajalari xatm-ul anbiyo va xatm ul-avliyo mavzulari tahlil etilgan. Shuningdek, asarda valoyatning o‘n

xususiyati, avliyolik alomatlari, vahiy, ilhom, karomat, farosat, qurb kabi masalalar Qur'on va Hadisdan keltirilgan dalillar asosida yoritilgan. Hakim Termiziy "Xatm ul-avliyo" asarida nabiylik, valiylik masalalarini o'rtaga tashlab, ilmiy-nazariy jihatdan asoslab, tasavvuf ta'limotining muhim mavzularidan biriga aylantirgan bo'lsa, keyingi davr olimlari Abulhasan Hujviriy, Abu Homid G'azzoliy, Ibn al-Arabiy, Bahouddin Naqshbandlarning asarlarida bu mavzu tasavvufdagi komil inson haqidagi mukammal va tizimli ta'limotni yuzaga kelishiga zamin yaratgan.

Nafs va qalb tarbiyachisi valiyyulloh Hakim Termiziy o'zining "Ma'rifat ul-asror" kitobida tasavvuf doirasidagi ibora va so'zlarning sirlarini ochib, ularni qanday ma'nolarga dalolat qilishi haqida tadqiqotlar olib borib, chuqur ilmiy mushohadalar asosida bayon qilgan. "Ma'rifat ul-asror" (Sirlar ma'rifati) asarida "shukr", "sabr", "rizo", "vara'" kabi tasavvuf shayxlari orasida muomalada bo'lgan istilohlar haqida so'z yuritib, ularni sharhlab, izohlar bergan. Bu manba bizga Movarounnahr va Xuroson mintaqasi tasavvufida muomalada bo'lgan istilohlar, ularning o'z davrida anglatgan ma'nolari haqida mufassal ma'lumot beradi. "Ma'rifat ul-asror" asari tasavvuf ilmi tadqiqotchilari va tasavvuf ta'limoti va falsafasiga qiziquvchilar uchun juda foydali manbadir [4;69-b.].

"Manozil ul-ibod min al-iboda" (Bandalarning bandachilikdagi manzillari) asari ham tasavvuf falsafasiga bag'ishlangan. Hakim Termiziy bu asarida bandalarning ma'naviy kamolot manzillarini ta'riflab, inson kamolotining asosi bo'lgan "tavba" manzilidan to "qurbat" (Haqqa yaqinlik) manziliga qadar yetti manzilning xususiyatlari, talablari va ahamiyatini bayon qilgan. Bu asarni komil inson tarbiyasiga oid asarlar sirasiga kiritsak ham aslo mubolag'a bo'lmaydi. Dunyo manzillarini har qanday inson kezishi mumkin, ammo bandachilik manzillarini kezish faqat xos kishilarga nasib etadi. Ma'naviy manzillarni kezish uchun ilm, adab, ixlos, e'tiqod, muhabbat, sadoqat, axloq kabi fazilatlarga hamda yo'l ko'rsatuvchi bir murshid (pir)i komilga bog'liq, deb hisoblagan [5;64-b.].

"Bayon ul-kasb" (Kasb-tirikchilik bayoni) risolasida Hakim Termiziyning rizq va kasb haqidagi g'oyalari asoslab berilgan [2;348-b.]. Haqiqiy inson mehnat qilib, halol kasbi–rizq-u ro'zisini topishi lozim degan bunyodkor g'oyani ilgari surgan. Hakim Termiziyning halol kasb va halol rizq haqidagi g'oyalari, keyinchalik, Xojagon va Naqshbandiya ta'limotiga ijobiy ta'sir etgan [6;160-b.].

Demak, tadqiqotimiz doirasida, Hakim Termiziy asarlaridagi quyidagi masalalar: inson kamolotida ma'naviy manzillarning ahamiyati, insonning o'zligini anglashi masalasi, qalb, qalbning pokligi, nafs, nafs tarbiyasi, halol mehnat, halol rizq kabi masalalar keng yoritilgan. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, shuni qayd etib o'tish lozimki, Hakim Termiziy o'ziga xos ta'limot va maktabga ega bo'lgan mutasavvif sifatida e'tirof etilgan.

Xulosa. Hakim Termiziy Movarounnahr va Balx ijtimoiy-madaniy, ma'naviy hayotida ilm-fan rivojlanish pallasiga kirgan bir davrda yashab ijod qilgan. O'z davrining buyuk mutafakkiri bo'lganligi uchun Hakim nomi bilan ulug'lanib, Hakimiya ta'limotini asosladi. Olim o'zi yashagan davr ta'limotlarini chuqur o'rgangan. Hakim Termiziyning boy ilmiy-ma'naviy merosi Qur'on, hadis, fiqh, kalom, islom falsafasi, tasavvuf tarixi va nazariyasiga asoslangan. Hakim Termiziyning ma'naviy merosi keyingi davrlarda vujudga kelgan qator tariqatlar, ta'limotlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Allomaning tasavvufiy-falsafiy qarashlari Ibn Arabiy asarlari uchun asos bo'lgan. Shuningdek, Hakim Termiziy Bahouddin Naqshband kamolotiga bevosita ta'sir etgan va Naqshbandiya ta'limotining valoyat tushunchasining shakllanishiga ta'sir etgan ulug' va mo'tabar zotdir.

Yangi O'zbekistonda Hakim Termiziy ma'naviy merosini o'rganish, mutasavvif merosi asosisda yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Hakim Termiziy ma'naviy merosining inson kamolotidagi. Monografiya, Xaitov Lazizbek Azamatovich, "Bukhara Hamd Print" nashriyoti, Buxoro, 2023, 6-bet.

(2). Муҳаммад Ҳаким Термизий рисолалари. Будувву шаън Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ал-Ҳаким ат-Термизий. Адаб ун-нафс. Риёзат ун-нафс. Баён ул-касб. Таржимон Ж.Чўтматов. Тошкент, "Movarounnahr", 2017, 25–42-бетлар.

(3). Ал-Ҳаким ат-Термизий. Хатм ул-авлиё .Валийлар муҳри. Таржимон Раҳимов К. Тошкент, "Noshir", 2017, 308-бет.

(4). Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али Хаким Термизий. Маърифат ул-асрор (Сирлар маърифати). Таржимон Абдулҳамид Муҳаммад Турсунов. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2017, 69-бет.

(5). Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али Ҳаким Термизий. Мўминларнинг ибодатдаги даражалари (Манозил ул-ибод мин ал-ибода). Таржимон Абдуқаххор Шоший. Ўзбекистон мусулмонлари идораси. Тошкент, "Movarounnahr", 2017, 64-бет.

(6). Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Алий ибн Ҳасан Ҳаким Термизий. Сарахс аҳли сўраган масалалар. Касбнинг баёни. Таржимон шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тошкент, "Hilol", 2019,160-бет.

(7). Орифлар тасаллиси. Ҳаким Термизий асарларидан сайланма. Таржимон И.Усмонов ва бошқ; Тошкент, "Movarounnahr", 2018, 247-бет.

Karayev Nizam Abduraimovich (O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi; Karayev@inbox.ru)

AXLOQIY MADANIYATNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada axloqiy madaniyatning mohiyati va mazmuni yoritilgan. Axloqiy madaniyat insonda uning xulqi orqali namoyon bo'ladi. Xulq esa kishilarning ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning yig'indisidir. Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyatning asrlar osha o'z tajribasi orqali erishgan natijalaridir.*

Kalit so'zlar: *axloq, xulq, me'yor, hatti-harakat, qoida, ong, tafakkur.*

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В данной статье описывается сущность и содержание нравственной культуры. Нравственная культура проявляется в человеке через его поведение. Поведение – это совокупность нравственных действий, определяемых разумом и волей людей. Правила нравственной культуры являются результатом многовекового человеческого опыта.*

Ключевые слова: *мораль, поведение, норма, поведение, правило, сознание, мышление.*

ESSENCE AND CONTENT OF MORAL CULTURE

Annotation. *This article discusses the essence and content of moral culture. Moral culture is manifested in a person through his behavior. Behavior is the sum of moral actions determined by the consciousness and the will of people. The rules of moral culture are the results achieved by humanity through its own experience over the centuries.*

Keywords: *morality, behavior, norm, behavior, rule, consciousness, thinking.*

Kirish. Axloqiy madaniyat insonda uning xulqi orqali namoyon bo'ladi. Xulq esa kishilarning ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning yig'indisidir. Kishilarning xulqi jamiyatda axloqiy madaniyatlarni shakllantirish, jamiyatning axloqiy muhitini yaratishda katta rol o'ynaydi. Xulqqa xos xususiyat elementi axloqiy xatti-harakatdir. Xatti-harakat kishining ijobiy yoki salbiy xislatlarini namoyon etadigan faoliyatdir. Boshqacha qilib aytganda, xatti-harakat kishining ongli yo'naltirgan va yakunlangan harakati yoki faoliyatidir. Xatti-harakatlar to'g'ridan to'g'ri faoliyat qilishdangina iborat emas. Ular faoliyatsizlik – sukut, passivlik, loqaydlik yoki imo-ishora, qiliq, ohang tarzidagi munosabatlarda ham ifodalanishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metod (materials and methods). Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyatning asrlar osha o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikmatlar, naqllar, matal-maqollar tarzida bayon etiladigan, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadigan, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradigan me'yorlardir [1]. Zero, insonning har bir xatti-harakati va niyati uning axloqiy madaniyatiga tegishli bo'lib, unda muayyan ijobiy faoliyat bilan birga, ezgulik va nafosat xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Ma'lumki, kishilik jamiyati doimo taraqqiyotda ekan, uning axloqiy madaniyatga oid qarashlari ham doimo o'zgarib, rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ham o'zgarib rivojlanib boraveradi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik - xushhulqlilikka, xushhulqlilik – yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yo'lga qo'yilmagan joyda muayyan shaxs, vaqti kelib, odobsizlikdan – badxulqlilikka, badxulqlilikdan – axloqsizlikka o'tishi mumkin.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" risolasi "axloq insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur" degan so'zlar bilan boshlanadi [2]. Shuningdek, Avloniy "axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganini, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur" degan ifodalarni keltirib axloqiy madaniyatga urg'u beradi [3].

Shaxsning xulqida uning o'z-o'zini anglashi, mavjud ijtimoiy muhitining axloqiy talablari haqida tasavvurga ega bo'lishi ham muhimdir. Biroq xulq normalari haqidagi tasavvurlar, bilimlar bilangina kishilar xush axloqli bo'lib qolavermaydi. Axloq kodeksini yodlash bilan ish bitmaydi, balki shu xulq qoidalarining chinligiga, zarurligiga chuqur ishonch bo'lish kerakki, ular kishilarning faoliyatida, xatti-hara-